

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası dotsenti,  
Rashidova Umida Mansurovna taqrizi ostida**

**Orifova Marjona Elyorovna**  
Sharof Rashidov nomidagi SamDU filologiya fakulteti  
2-bosqich talabasi  
Telefon raqami: +998 93 549 11 04  
E-mail:marjonaorifova05@gmail.com

---

### **ABDULLA QAHHORNING “SINCHALAK” QISSASIDA BADIY SIFATLASH (EPITET)LARNING QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek tilshunosligida epitetlarning lingvistik xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Epitet tropning bir turi bo‘lib, unga badiiy obrazlilikni ta‘minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan. Epitetlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo‘lib, aniqlovchilardan emotsional ta‘sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi. Tahlil jarayonida A.Qahhorning “Sinchalak” qissasida qo‘llanilgan ayrim epitetlar lingvistik jihatdan tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** sifatlash (epitet), badiiy aniqlovchi, metaforik epitet, ekspressivlik.

**Аннотация:** В статье рассматриваются лингвистические особенности эпитетов в узбекском языкознании. Эпитет-это тип тропа, который рассматривается как изобразительное средство, обеспечивающее художественную образность. Эпитеты по сути близки детерминантам и отличаются от детерминантов эмоциональной выразительностью, свойством художественной речи. В процессе анализа лингвистические аспекты некоторых эпитетов, использованных в рассказе Кахора “Синчалак” подвергаются анализу.

**Ключевые слова:** эпитет, художественный определитель, метафорический эпитет, выразительность.

**Annotation:** The article will talk about the linguistic features of epithets in Uzbek linguistics. The epithet is a type of trope, and was treated as a pictorial instrument that provided artistic imagery to it. Epithets are in essence close to clarifiers and differ from clarifiers in terms of emotional impressiveness, originality to artistic speech. In the process of analysis, the linguistic aspects of certain epithets used in the A. Qahhor narrative “Sinchalak” are subject to analysis.

**Key words:** adjective (epithet), artistic determinant, metaphorical epithet, expressiveness.

**Kirish.** Til birliklariga xos jihatlardan biri ularning nutqda uslubiy vazifa bajara olish xususiyatiga ega bo‘lishidir. Til birliklarining uslubiy vazifasi kontekst, nutqiy vaziyat, so‘zlashuvchilarning til ko‘nikmalari va nutq obyektı haqidagi umumiy bilimlari bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqadi. Tasviriy vositalarning xarakterli ko‘rinishlaridan biri epitet-sifatlash bo‘lib, u voqelik, tuyg‘u va predmetning o‘ziga xos tomonlarini aniqlab, ta‘kidlab, ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatadi. Ushbu xususiyati bilan epitet badiiy aniqlovchi sanaladi. Epitet, aslida, yunoncha “epitheton” – ilova etilgan, izohlovchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, badiiy sifatlash demakdir. Epitet tropning bir turi bo‘lib, unga badiiy obrazlilikni ta‘minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan. Epitetlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo‘lib, aniqlovchilardan emotsional ta‘sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi.

Epitetning dastlabki va birmuncha aniq ta‘rifi qadimgi Rim klassiklari qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Faylasuf Kvintilian epitetni nutqni boyituvchi emas, balki bezovchi vosita deb qaraydi. Uning fikricha, epitetsiz nutq yalang‘och va xunuk bo‘lib qoladi, me‘yordan ortiq ishlatilganda esa nutq cho‘ziq yoki chalkash bo‘lib ketadi. Bezak uchun asosiy imkoniyat so‘zlarning ko‘chma ma‘noda qo‘llanishidir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand: SamDU nashriyoti.1994. -22b.

**Materiallar va uslublar.** M.Mukarramov sifatlash va aniqlovchilarning ma'no va grammatik jihatdan farqlanuvchi beshta xususiyatini ajratib ko'rsatgan. A.T.Rubaylo sifatlash tropning metafora va metonomiyaga yaqin bo'lgan turi ekanligini ta'kidlab uni badiiy aniqlovchi deb ataydi. R.Qo'ng'urov sifatlashning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi kabi xususiyatlari mavjudligini ta'kidlab, uni poetik aniqlovchi deb ataydi.<sup>2</sup> Darhaqiqat, sifatlashlar, obrazlilik darajasining kuchliligi, emosional-ekspressivligi va nihoyat badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchilardan keskin farq qiladi. M.Kojina sifatlashni narsa hodisani obrazli ifodalovchi, xarakterli xususiyatlarini ta'kidlovchi, ko'proq badiiy nutqda qo'llanilib, estetik vazifa bajaruvchi so'z sifatida talqin qiladi.

Adabiyotlarda epitetlar tasviriy, lirik, liro-epik, doimiy, metaforik, baholovchi, bezak, kuchaytiruv deb bir necha guruhlariga bo'linadi.

U narsa-hodisaning belgisini obrazli ifodalaydigan badiiy aniqlovchidir. Til nuqtai nazaridan qaralsa, sifatlash (epitet) hamisha aniqlovchi vazifasida keladi, lekin oddiy aniqlovchidan farqli ravishda, u badiiy-estetik vazifa bajaradi. Oddiy aniqlovchi narsa-hodisani bir turdagi boshqa predmetlardan ajratib ko'rsatish uchun xizmat qilsa, epitet unga xos muayyan belgini ajratib, ta'kidlab ko'rsatadi. Ko'p hollarda epitet belgini ko'chma ma'no orqali ifodalaydi. Bunday hollarda metaforik epitet hosil bo'ladi. Ularda obrazlilik ham, baholash ottenkasi ham kuchli bo'ladi. Shuningdek, Abdulla Qahhor "Sinchalak" qissasida bunday epitetlardan foydalangan: Shu mahalgacha hech vaj bilan ko'zga ko'rinmagan oddiy bir ketmonchi so'z oldi. U mosh-guruch cho'qqi soqolining uchini tortqilab yerga qaraganicha xiyla turib qolganidan keyin kulimsirab so'z boshladi [124-b].

Bezak epitetlar deb ataluvchi yana bir turdagi tasviriy epitetlar borki, ular ham xalq og'zaki ijodiga aloqador badiiy asarlarga xos. Shu nom bilan yurtuluvchi oltin, kumush, zar, tilla kabi so'zlarni predmetlarga badiiy baho beruvchi doimiy epitetlarning bir ko'rinishi deyish ham mumkin. Xususan, biz tadqiq etgan qissada ham foydalanilgan: Agar oramizda muhabbat bo'lsa, bir-birimizning oyog'imizga oltin kishan bo'lar edik. Kishan oltin bo'lsa ham, har qalay kishan! [105-b]; Bular kanalni yoqalab borib ko'prikka yetganda, oydinga suyuq oltinday oqayotgan kanal, undan nari shaffof qorong'ilik qoplab yotgan paxtazor, uzoqdagi past-baaland daraxtlar manzarasiga mahliyo bo'lib turib qolishdi [106-b].

**Natijalar va muhokamalar.** Badiiy nutqda qo'llaniladigan barcha so'zlar u yoki bu darajada tasviriylikni vujudga keltiradi. Chunki har qanday so'z matnda o'ziga xos ma'no ifodalaydi, voqea-hodisaning tasvirini yaratadi. Shuningdek, tilda tasviriylikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud bo'lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi. A. Qahhorning "Sinchalak" qissasida sifatlash (epitetlar)lardan badiiy asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida unumli va ijodiy foydalanilgan: Zulfiqorov har safar devor oshganida, endi kolxozda "katta qoziq" bo'lib qolganini aytib, Mehriq shon-shuhrat va'da qilardi [70-b]. Ushbu jumlada ishtirok etgan katta qoziq birikmasida aniqlovchi ko'chma ma'nodagi so'z bo'lib, "ma'lum bir mansabga o'tirmoq", "katta lavozimga ko'tarilmoq" ma'nosini ifodalab kelgan.

Yana bir jihatni ta'kidlab o'tish joizki, har bir ijodkorning o'z sevimli epitetlari bo'ladi va ular yozuvchi individual uslubining shakllanishiga ma'lum darajada xizmat qiladi. Bu fikrni Sinchalak qissasida uchraydigan epitetlarni tahlil qilish orqali ko'rishimiz mumkin. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu asarda epitet sifatida qudratli, sog'lom, nozik, xunuk, qahat so'zlariga murojaat qilgan: Gazeta, aftidan, majlisda aytilgan gaplar, ochilgan illatlar, o'rtaga tashlangan fikrlarga katta ahamiyat berib, bularga butun rayon jamoatchiligining diqqatini tortmoqchi, shu o't bilan boshqa kolxozlardan dushmanlarni kuydirmoqchi, sog'lom intilishlarga yo'l ochib bermoqchi edi [143-b]. Qalandarov undan boshqa xunuk gaplar kutgani uchun g'alati bo'lib, angrayib qoldi [87-b]. Hayal o'tmay Umida ham gap topib keldi: Qalandarov Zulfiqorovni kabinetiga olib kirib juda behurmat qilibdi, hozirdan boshlab brigadirlikdan bekor bo'lding, bugun masalangni qo'yib, kolxozdan haydayman debdi va kechqurun soat to'qqizga pravlenie chaqirishni Umidaga buyuribdi [99-b].

Epitet poetik aniqlovchi sifatida narsa, hodisa yoki tushunchaning biror xususiyati, belgisini alohida baholab ko'rsatish uchun o'shanday so'zlar oldidan qo'shimcha tarzda keltiriladi va poetik matnning muhim

<sup>2</sup> Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositlari. 27-b

tasvir ifodasi sifatida yuzaga chiqadi. Sifatlovchi-aniqlovchi sifatida turg'un, doimiy, barqaror epitetlar poetik matnlarning aksariyatida uchraydi. Ijodkorlar olamdagi narsa va hodisalarni, shaxslarni tasvirlashda ularga xos bo'lgan doimiy belgilarga asosiy e'tiborni qaratadilar. Bu orqali olamni badiiy idrok etish, narsa va hodisalarning belgilarini obrazli tarzda his qilish va matnda ulardan o'rinli foydalana olishni bosh maqsad qilib oladilar. Masalan: Qalandarov eski byuroning faoliyati hammaga ma'lum bo'lganidan, hisobot quruq rasmiyat bo'lishini aytib, to'g'ridan-to'g'ri saylov o'tkaza berishni taklif qildi [36-b]; Eshon ham imo-ishora bilan bu haqda katta va'da berib ketdi-yu, hayal o'tmay hovliqqanicha rayon gazetasi bugungi sonidan bir nusxasini ko'tarib keldi [39-b].

Ma'lumki, har qanday muloqot matndan nutq tuzuvchi va uni qabul qiluvchi shaxsni ajratish mumkin. Ijodkor badiiy nutq tuzuvchi va idrok etuvchi, badiiy tildan foydalanish jarayonida unga o'z shaxsiy sifatleri bilan ta'sir ko'rsatuvchi, jamiyatda shakllangan milliy-madaniy qarashlari unga singdiruvchi shaxsdir. Ayni shu xislatlarga ega til egasining nutqi individual mahorat hisoblanadi. A. Qahhorning "Sinchalak" qissasida epitetlarni qo'llashda o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi. U epitetli birikmalarni ko'proq uyushiq holda qo'llaydi: Nosirov uning xiyol dimiqqan qovog'i, qoni qochgan burni va bilinar-bilinmas pirqirayotgan labidan yig'i tomog'iga tiqilib yotganini, bu yig'ining boisi, hech shubhasiz, Qalandarov ekanini fahmladi-yu, kabinetga kirmadi [54-b]. Kampir ikkala bilagini shimarib, kirib ketdi va hayal o'tmay qizil yaktak, lozim kiygan, o'ttiz yoshlardagi juda ozg'in, tig' tegmagan soqol mo'ylovi patak bo'lib ketgan bir yigitni boshlab chiqdi [87-b].

**Xulosa.** Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasida epitet(badiiy sifatlash)lar ishtirok etgan jummalarni tahlilga tortganimizda quyidagi xulosalarga kelindi: bu tasviriy vositaning qo'llanish miqdori va bundagi o'ziga xosligi, asosan, ijodkorning unga bo'lgan subyektiv munosabatini belgilaydi. Ayrim o'rinlarda asar g'oyasi, qimmatini belgilashda juda zarur va betakror epitetlardan foydalanganini ko'ramiz. Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, yozuvchi mazkur qissasida doimiy, turg'un, metaforik, bezak, baholovchi epitetlardan unumli foydalangan. Bir so'z bilan aytganda, Abdulla Qahhor so'z ustasi va serqirra ijodkordir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: O'qituvchi, 56-b.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. T., 2004. 40-bet.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri. diss. –Toshkent, 2008.
4. Qo'ng'urov R. "O'zbek tilining tasviriy vositalari" Toshkent: Fan, 1977. 27-b
5. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand: SamDU nashriyoti.1994. -72b.